

YANGI O'ZBEKISTON - SHARQ RENESSANSI VATANI

Xalimbetov Yusuf,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti dotsenti, f.f.n.

Usmonova Laylo,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti o'qituvchisi, PhD.
(e-mail: laylo.b@mail.ru)

Annotatsiya. Jahon falsafiy-ilmiy va madaniy tafakkurining rivojlanishi ko'rsatib turibdiki, uning ayrim tarixiy davrlari goho ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlarning konservatizmi sabab bo'lgan zulmatli turg'unlik belgilari bilan, goho tarixiy taraqqiyotning burilishi momentlariga xos gurkirab yuksalish to'liqlari bilan xarakterlanadi. Sharq Renessansi davri huddi ana shunday yuksalishdan dalolat beradiki, bu davrda ko'pgina falsafiy hamda hayotiy muammolarning o'rtacha qo'yilishi va hal etilishi keskin o'zgarishlarga olib keldi. Yurt obodonchiligi, mamlakat ravnaqi, qudratining yuksalishi davomida unda tabiiy ravishda ma'naviy madaniyat, ilm-fan rivoji ham jadal sur'atlar bilan ko'zga tashlanib bordiki, buning natijasida bu zamindan o'z elini shon-sharafga burkagan, dunyoga dovrug' taratgan mashhur allomalar, ilm-fan yulduzlari yetishib chiqdilar. Mazkur maqolada yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ibratli hayot yo'llari va boy ilmiy-ma'naviy merosi o'rganilgan va yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Renessans, fan, madaniyat, meros, insonparvarlik, axloq, ma'rifat, Sharq.

Аннотация. Развитие мировой философско-научной и культурной мысли показывает, что отдельные ее исторические периоды характеризуются то признаками мрачного застоя, вызванного консерватизмом общественных отношений, то волнами бурного роста, характерными для переломных моментов исторического развития. Период Восточного Возрождения свидетельствует о таком подъеме, что в этот период усредненная постановка и решение многих философских и жизненных проблем привели к радикальным изменениям. В ходе благоустройства и развитие страны, подъема власти, развитие духовной культуры и науки, естественно, повлияли быстрому развитию всех отраслей общества, в результате чего на этой земле выросли звезды науки, всемирно известные ученые принешие славу своей стране. В данной статье изучены и освещены образцовые жизненные пути и богатое научное и духовное наследие великих ученых, выросших в нашей стране.

Ключевые слова: Возрождение, наука, культура, наследие, гуманизм, этика, просвещение, Восток.

Annotation. The development of world philosophical, scientific and cultural thought shows that its individual historical periods are characterized either by signs of gloomy stagnation caused by the conservatism of social relations, or by waves of rapid growth characteristic of turning points in historical development. The period of the Eastern Renaissance testifies to such a rise that during this period the average formulation and solution of many philosophical and life problems led to radical changes. In the course of the improvement and development of the country, the rise of power, the development of spiritual culture and science, naturally, influenced the rapid development of all sectors of society, as a result of which science stars grew up on this land, world-famous scientists who brought glory to their country. This article examines and highlights the exemplary life paths and rich scientific and spiritual heritage of the great scientists who grew up in our country.

Key words: Renaissance, science, culture, heritage, humanism, ethics, enlightenment, East.

KIRISH

Muhammad s.a.v. payg‘ambar hadislarida “Vatanni sevish iymondandir” deb ta’kidlangan. Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining allomalaridan biri Bahouddin Naqshband hazratlari ham “As-sayohati dar Vatan” deb ta’lim bergan edilar. Bu so‘zlarning zamirida chuqur ma’no yotgan bo‘lib, Vatanni sevish, avvalambor uni bilsh, Ona yurt tarixini, xalqimizning azaliy milliy qadriyatlarini, madaniy va ma’naviy boyliklarini o‘rganish, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz merosini o‘qib o‘rganib, ularga hayotda ne chog‘lik amal qilishi tushuniladi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U halqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.”¹

Milliy madaniyatimizning tezkorlik bilan rivojlanishi tabiiy ravishda uning asosiy manbai bo‘lmish madaniy merosimizni keng va chuqur hamda ilmiy asosda izchil o‘rganishimizni taqoza etadi. Ma’lumki, uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari tarixi o‘z boshidan turli voqealarni, ko‘tarilish va susayish davrlarini kechirgan. Bu davrlar tarixda shubhasiz ma’lum iz qoldirgan. Xususan, madaniyatimiz taraqqiyotida IX-XII asrlar katta rol o‘ynadi. Bu davr O‘rta Osiyo xalqlarini dunyo madaniyatida mashhur qildi. Chunki, O‘rta Osiyo xalqlarining bu davrda qo‘lga kiritgan madaniy yutuqlari, ilm-fan sohasidagi yangiliklari dunyo madaniyati, ilm fan rivojining ajralmas qismini tashkil etadi.

ASOSIY QISM

«Renessans» (uyg‘onish) davri Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi shartli nomlanish bo‘lib, IX-XV asrlarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat va ma’rifatning g‘oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo‘lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Shuning uchun ham renessans – uyg‘onish davri madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati mohiyat-e’tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarash, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning qayta uyg‘onishini anglatadi. Uyg‘onish davri namoyondalarining qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi.

“Musulmon Uyg‘onishi” tushunchasi shveytsariyalik sharqshunos olim Adam Metsning (1869-1917) 1922 yili nashr etilgan, arab xalifaligining IX-X asrlardagi madaniyat tarixiga bag‘ishlangan «Мусульманский Ренессанс» kitobida ilk

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2018. B.29

qo‘llanilgan. Tadqiqotlarini ikki asr bilan chegaralagan olim, bu davr bilan bog‘liq keng ma‘nodagi juda ko‘plab manbalarni, uning diqqat e‘tiborini va nazarida lozim deb bilgan puxta o‘rganish natijasida davrning madaniy-tarixiy aksini ifoda etuvchi jarayon sifatida tahlil va tadqiq etgan. Kitobda musulmon xalifaligi davridagi huquqiy tizim haqidagi ma‘lumotlar bilan bir qatorda, boshqaruv va moliyaviy masalalar, soliq tizimi, ma‘naviy hayot, o‘sha davrlardagi insonlarning turmush tarzi, adabiyot, axloq, din, maorif tizimi, bayramlar, xo‘jalik yuritish va savdo sotiq, jumladan daryo va dengiz xo‘jaliklari bilan bog‘liq masalalar o‘z ifodasini topgan.

O‘rta asrlar Markaziy Osiyo estetik tafakkurining shakllanishi madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. “Bu yerda turli ilmiy, diniy muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo‘ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko‘chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni tarjima qilish natijasida, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. Bu davrda birinchi akademiya – “Donishmandlik uyi” tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Unda xalifalikning turli o‘lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar”².

Umuminsoniy qadriyatlarga e‘tiqod, insonparvarlik tamoyillariga sodiqlik ruhi mustahkam tizimga aylana boshladi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida “Uyg‘onish birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma‘naviylik – mustaqillikning samarasi bo‘ldi”³.

Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo‘lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog‘doddagi mazkur ilm markazi, o‘z navbatida Sharq va g‘arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma‘naviy hayotning rivojlanishiga ta‘sir etgan. Bu o‘rinda xalifa al-Ma‘munning ilm-fan ravnaqida ko‘rsatgan homiyligini alohida ta‘kidlash joiz. Zero, xalifa al-Ma‘mun ilm fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo‘lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to‘plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg‘oniy, al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo‘lgan. Al-Ma‘mun xalifalik taxtiga o‘tirgach u olimlarning barchasini Bag‘dodga chaqirib oladi va “Bayt-ul-hikmat” - donishmandlik uyi (“Ma‘mun akademiyasi”)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

“Bu davr madaniyatining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ilm-fan, san‘at-adabiyot, ijtimoiy-fikr asarlari uch tilda – arab, fors-tojik va turkiy tillarda ijod etildi.

² Ўзбекистон фалсафаси тарихи. I жилд. Т.: “NOSHIR”, 2013, 63-бет.

³ Ўша жойда. 68-бет.

Bu davrda O‘rta Osiyo, butun musulmon dunyosi madaniyatiga qadimgi yunon ilm-fani, madaniyatining ta‘siri ham kuchaydi”⁴.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma‘mun II o‘z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan “Bayt-ul-hikma” - Donishmandlar uyi tarixda “Ma‘mun akademiyasi” deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masixiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug‘ullanganlar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o‘z faoliyatini to‘xtatib, olimlar tarqab ketadi. Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma‘naviy ko‘tarilish Sharq Renessansi – Uyg‘onish davrining boshlanishga olib keldi. Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida ta‘limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e‘tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, Sharq uyg‘onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta‘lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o‘lmas ta‘limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

XV-XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birin-ketin madaniy yuksalish ko‘zga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining, hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivoj topishi bilan uzviy bog‘liq edi.

G‘arbda Renessans madaniyati birinchi bo‘lib Italiyada boshlandi. Ma‘lumki, Italiya o‘sha davrda O‘rta dengizda, temir yo‘l va havo yo‘llari bo‘lmagan bir davrda, suv yo‘li orqali savdogarlikni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy-madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy o‘rinlardan birini egallar edi. Italiyaning sharqiy qo‘shnisi bo‘lgan Ispaniyada esa musulmon madaniyatini bevosita rivoj ettirgan arab davlatlari Kordova xalifaligi deyarli XV asrlarga qadar davom etdi. Bular hammasi Italiyada boshlangan Renessans uyg‘onish madaniyati shakllanishida IX-XII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida vujudga kelgan arab tilidagi madaniyat, Sharq Uyg‘onish davri madaniyati, fani bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi.

XII-XIV asrlarda Italiyada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Marvoziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Abu Rayhon Beruniy kabi mashhur Sharq olimlarining asarlari lotin tiliga tarjima etildi, arab ilmiy yutuqlarini o‘rganishga intilish kuchaydi. Bu asarlar Yevropaga keng tarqaldi va Renessans madaniyatining muhim qismiga aylandi.

⁴ Ўша жойда. 71-бет.

Yaqin va O'rta Sharq uyg'onish madaniyatining shakllanishida O'rta Osiyo madaniy an'analari katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, VIII asrlarda O'rta Osiyo Yaqin Sharqda yangi vujudga kelgan arab davlati xalifalik tomonidan istilo etildi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tafsiricha bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi, yerli hokimiyat to'xtatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, arxitektura, san'at namunalari barbod bo'ldi. Ilm-ma'naviyat fidoyilari qurbon etildi va hokozo. Xalq xalifalikka, yangi dinga qaram qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. VIII-IX asrlarda Abu Muslim, Shariq ibn Shayx, Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ular bosqinchilarga qarshi hurlik, ozodlik uchun kurashdilar.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda Somoniylar davlati vujudga keladi, bu arab Xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qo'lga kiritish edi.

Qadimgi madaniyat an'alariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksaklikka ko'tara oldi. Shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarning kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish Renessans shu davrda boshlandi, O'rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalar yaratdi.

Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Ahmad Yugnakiy, Maxmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishning cho'qqilaridir. Xattoki arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bog'dod akademiyasining ko'rki bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan ma'lum, Muhammad Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Javhariy, Ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidandir.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur erkin ijod, mustaqil ma'naviylik – mustaqillikning samarasi bo'ldi.

Genial aql-zakovat va behad g'ayrat sohibi bo'lmish Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yillar) ham "Sharq Renessansi" davri qomuschi olimlardan biri edi. Uning dunyoqarashi X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshida O'rta Osiyo va rivojlangan feodalizm qaror topayotgan g'oyat murakkab, jo'shqin voqealarga boy tarixiy vaziyatda shakllandi.

Yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida talim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga

bag‘ishlaydi. Beruniy o‘z tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: Arab, so‘g‘diy, forsiy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda Sanskrit tilini o‘rganadi.

Oz ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan bohslab Kot shahrida muhim astronomer kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. 22 yoshidan Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida yashadi.

Mashhur fan tarixchisi Sarton jahon fani tarixida XI asrning butun birinchi yarmini Beruniy davri deb ataydi.⁵ Beruniyning xizmatlarini ana shunday e‘tirof etish mashhur hind olimi M.Nizomiddin sharqshunoslarning XXV kongressida so‘zga chiqib bunday degan edi: “Matematika, astronomiya, astrologiya, geografiya, geofizika, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, ideologiya, falsafa, botanika, minerologiya, qiyosiy din va sotsiologiya tarixini Beruniyning inson bilimlarining ana shu sohalariga qo‘shgan katta hissalarini ko‘rib chiqmasdan turib, to‘liq deb hisoblab bo‘lmaydi.”⁶

Beruniyning ilmiy asarlari – uning buyuk xizmatlarining eng yorqin dalilidir. 150 dan ziyod fundamental asarlar, I.Yu. Krachkovskiyning so‘zlariga ko‘ra “U o‘z zamonidagi ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarning jamini qamrab olgan.”⁷

Beruniy yer yuzidagi boshqa mavjudodlarga qaraganda inson zimmasiga eng ma‘suliyatli vazifalar yuklangan, deb o‘ylar edi. Mutafakkirning da‘vosicha, inson zoti tabiatning eng oliy kamolotidir, chunki inson barcha hayvonlardan yuqori turadi, yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun insonga katta sharaf ko‘rsatilgan, unga aql-zakovat kuchi arg‘umon etilgan.⁸

XIV asrning 60 yillaridan boshlab mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi Amir Temur yetakchilikdagi mustaqillik uchun harakat Movarounnahr va Xurosonda kuchli davlatning vujudga kelishi bilan yakunlandi. Bir asrdan sal ko‘proq davom etgan bu mustaqil davlat yana ilm-fan, adabiyot, san‘atning yuksalishiga imkoniyat yaratdi. Mustaqil bo‘lgan xalq yana erkin nafas olib o‘ ichidagi yangi iste‘dodlarga shijoat, yangi kuch, ilxom baxsh etdi. Bu X-XII asrlardagi dushman xuruji natijasida uzib qo‘yilgan Uyg‘onishning tiklanishi, ma‘naviy ravnaqning ikkinchi bosqichi edi.

Vatanimiz tarixida shunday ma‘naviy sarchashmalarga boy davrlar borki, ularning mazmun-mohiyati nafaqat o‘zbek xalqiga, balki jahon xalqlari aqlu-idrokiga

⁵ Из философского наследия народов Востока. Ташкент, издательство «Фан», 1972. С. 141

⁶ O‘sha joyda

⁷ Krachkovskiy I.Yu. Арабская географическая литература. Л. Издательство АН СССР соч.т. VI 1947г. С.42-47

⁸ Abu Rayhon Beruni, Minerologiya. T.2 Toshkent, 1966 y. B.9

tatiydi. Ana shunday oltin davrlardan biri dunyo madaniyati sahifalarini zarxal satrlar bilan bezagan Temuriylar davridir.⁹

Bu davr mo‘g‘ullar istilosi natijasida uzilib qolgan Uyg‘onish davri – Renessansning tiklanishi va oliy cho‘qqisi edi. Uyg‘onish davri ma‘naviy- madaniy hayotida insoniy qadriyatlarning yuksak xislatlari – ilmga intilish, bilimni kuchaytirish, aqlni ulug‘lash, insoniylik, ruhiy poklanish, axloqiy kamolotga erishuv, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do‘stlik-birodarlik, komil jamoa va komil insonni yaratish kabi masalalar olg‘a surildi. Ular muhim ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, san‘at, diniy asarlarning mazmunini tashkil etdi. Bu davrdagi olim, mutafakkir, donishmand, san‘atkorlarning ko‘pchiligi shu maqsad yo‘lida ijod qildi¹⁰.

Bu davrning yuksak tafakkur sohiblaridan biri, shoxlar ichidan chiqqan buyuk olim va olimlar shoxi bo‘la olgan xukmdor Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekdir. Buyuk munajjim , riyoziyun, jug‘rofiyashunos va tarixchi, tolmas ma‘rifatchi va ulug‘ bunyodkor Mirzo Ulug‘bek nafaqat yirik davlat arbobi va islohotchi, balki yuksak ma‘naviyat egasi, Turkiston va jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan salohiyatli allomadir. Mirzo Ulug‘bek, jahonning mashxur olimi – astronom va matematik sifatida fan taraqqiyoti hamda o‘z tadqiqotlari maqsadida Samarqand atrofida toshli sektant Observatoriyasini qurdirgan.

Bu davrda turkiy tildagi she‘riyat sultoni Alisher Navoiy ijod etib o‘zining dostonlari, ilmiy-tarixiy asarlari bilan madaniyat tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Alisher Navoiy Sharq Renessansi davri tarbiyalab yetishtirgan Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nizomiy, Rustaveli, Firdavsiy, Jomiy, Rumiy, Rudakiy, Sa‘diy, Umar Xayyom va boshqa buyuk siymolar qatoridan o‘rin olgan buyuk mutafakkir edi.

Navoiy dunyoga dong taratgan shoir sifatidagina, o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining asoschisi sifatidagina emas, balki ensiklopedik aql-zakovat soxibi sifatida ham mashhurdir; uni qiziqtirgan masalalar doirasi shu qadar keng bo‘lganki, o‘zining ko‘p qirrali faoliyati bilan mashhur bo‘lgan. Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she‘riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egalladi.

Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo‘ladi, o‘z davrining taniqli shaxslari bilan ko‘rishadi. O‘zining she‘riy mahoratini oshiradi.

⁹ Urolov A., Xojixonov M. “Ulug‘bek yaratgan ma‘naviyat” Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994 y. B. 5-7

¹⁰ Маънавият юлдузлари. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999, бет.143-144

1464-1465 yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she‘riy to‘plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo‘lib ulgurgan. 1469 yilgacha temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o‘zining ona shahri Hirot dan uzoqda yashashga majbur bo‘lgan.

1469 yil temuriy Husayn Boyqaro Hirot ni egallaydi va Xuroson hukmdori bo‘ladi. Shu vaqtdan e‘tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiy ni davlat muhrdori etib tayinlaydi, 1472 yil vazir bo‘ladi. Egallagan mansabi orqali u mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko‘rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

1480 yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o‘z hisobidan bir nechta madrasa, 40 ta rabot (yo‘lovchilar uchun bekat), 17 ta masjid, 10 ta so‘fiylar turarjoyi (xonaqoh), 9 ta hammom, 9 ta ko‘prik va boshqalarni qurdiradi.

Navoiy yoshligidanoq turkiy tilda besh doston yaratishni maqsad qilgan. Va u boshqa “Hamsa” yaratgan shoirlarga nisbatan juda qisqa muddatda, ya‘ni 1483-1485 yillarda yozib tugatgan. Bu davr mobaynida shoir boshqa traktatlarni ham yaratadi.

Navoiyning “Xamsa” asari “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabai’ sayyor” va “Saddi Iskandariy” kabi yirik dostonlardan iborat.

52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o‘ziga xos qomusi edi. Shoir voqealarni qadim Sharq tarixining Xusrav, Bahrom, Iskandar kabi nomlari afsonalar bilan chulg‘angan shaxslar, Layli va Majnun kabi oshiqlar hayotidan olgan. Davrning dardli masalalarini, avlodlarning orzu va armonlarini ko‘tarib chiqdi. “Xamsa” zamondoshlariga nihoyatda zo‘r ta‘sir ko‘rsatgan. Uning ustozlari Abdurahmon Jomiy uni hayrat bilan olqishlardi.

Navoiy musulmon Sharqining, deyarli barcha janrlarida o‘z qalamini sinab ko‘radi va o‘z ovozi, o‘z uslubi borligini ko‘rsata oladi. Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusida 120 dan ziyod doston yaratilgan. Navoiy ham shaxsiy yondashuvi ila ushbu mavzuda doston yozadi. Dostonda Layli va Majnun o‘rtasidagi sevgi bayon qilinadi. O‘z ifodasida Navoiy odamiylik va so‘fiylik sevgisini sharhlashga harakat qilgan. O‘zining so‘fiylik qarashlarini Navoiy, shuningdek, “Farhod va Shirin”, “Hayrat ul-Abror” dostonlarida ham ifodalagan. Uning dostonlarida so‘fiylik mavzusi umumfalsafiy darajaga ko‘tarilgan.

Mazkur dostonlarda, bir vaqtning o‘zida shoirning insonparvarlik dunyo qarashlari orqali dunyoning dolzarb muammolari qo‘yiladi. “Hamsa”dagi boshqa ikki dostonida - “Sab‘ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”)

hukmdor bilan bog‘liq muammolar (Qayumov A. Saddi Iskandariy. Toshkent, 1980 yil, o‘zbek tilida) yetakchi o‘ringa chiqadi.

Navoiy merosi chinakam qomusdir. Alisher Navoiy o‘z zamonasining juda buyuk gumanisti edi. “Tiklanish davrining yozuvchilari insonni yuksak ahloqiy belgilari bilan tasvirlab, ijobiy qahramonlar obrazlarining butun bir galleriyasini yaratdilar, bu qahramonlar ko‘pincha xalq namoyandalari edilar yoki o‘z taqdirlarida xalq ommasining fojiali qismatini aks ettirar hamda davr ziddiyatlaridan qutulish yo‘lini zo‘r berib izlar edilar. Ammo Renessans davridagi shaxsga sig‘inish kabi pok, beg‘araz, xaqgo‘y va sahovatli ijobiy qahramonlarnigina emas, balki o‘z amalparastligi yo‘lida har qanday vositalar bilan kurashuvchi ularga zid yirtqich xudbinlar obrazlarini ham yaratdi”¹¹

Sharq Renessansi davrining ana shu hamma xususiyatlari O‘rta asrning mutafakkirlari ijodi, shu jumladan Navoiy ijodi uchun ham xarakterli edi. O‘sha zamondagi hikmatdan ta‘lim beruvchi ko‘pgina ilg‘or ustozlar kabi Navoiy ham inson qimmatini uning yuksak ezgulikka qo‘shila bilish, boylikka va yuqori martabalarga, zodagonlik va shonu-shavkatga nafrat bilan qarashga o‘rgana bilish qobiliyatida deb bildi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson qadr-qimmatini birinchi o‘ringa qo‘yadi, nomus, oriyat va insoniy g‘urur tushunchalarining o‘ziga xos talqinini beradi. Mutafakkir asarlaridagi axloqqa doir fikrlar xoh amaliy axloqqa, xoh axloq nazariyasiga taalluqli bo‘lsin, ular ulkan bir davr axloqiy qarashlarining kvintessentsiyasi sifatida doimo tadqiq va tatbiqqa loyiqdir.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san‘at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan.

Alisher Navoiy ham yaxshilik sarchashmalarini insonning real hayotidan, ularning insoniy fazilatlarini, olijanob ishlaridan qidirdi. Navoiyning fikricha, yaxshilik g‘oyalari qonuniylik va adolat, tinchlik va ozodlik, muhabbat va do‘stlik, sadoqat va samimiylik, sahiylik, bag‘rikenglik sharoitida o‘zini ko‘rsatadi. Navoiy aytadiki, insonning hech qanday boyligi va yuqori martabasi uning o‘zini yaxshi odamman deb atashi uchun haq huquq bermaydi.

Navoiy o‘zi haqida shunday deb yozadi: “Men biroz yerga ishlov berish bilan shug‘ullandim. Ushbu ishda men qo‘limdan kelganicha adolatli bo‘lishga intilganligim sababli Allohning marhamati bilan, menga boyluk va nafu foyda nasib etdi. Ana shularning jamidan men tirikchilik o‘tkazish uchun oddiy inson uchun kerak bo‘lganini o‘zimga olib qoldim – issiq va sovuqdan saqlanish uchun chopon hamda

¹¹ История зарубежной литературы. С.205

oddiygina ovqat bilan kifoyalandim. Qolganlarining bir qismini odamlar bilan muloqatda bo‘lib turish uchun, shuningdek, navkarlarni va uyimdagilarni boqish uchun sarfladim. Yemoqqa va zarur vazifalarni bajarmoqqa ketganidan qolgan boshqa qismini xayrli ishlarga sarfladim.”¹²

O‘z navbatida, Abdurahmon Jomiy ham Alisher Navoiy ijodini yuksak qadrlagani tarixiy manbalardan yaxshi ma‘lum. “Hiradnomai Iskandariy” dostonida Navoiyning iste’dodi va mahoratiga yuksak baho berib, “U Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy panjasiga munosib panja ura oldi, hatto ulardan ham o‘zib ketti. Yaxshiyamki, u o‘z asarlarini turkiy tilda yaratdi, agar forsiyda qalam tebratganida bormi, boshqalarga bu maydonda javlon urish uchun majol qolmas edi”, deya mafh etdi. ... Insoniy maslagi va orzu-intilishlari bir bo‘lgan bu daho shoirlar hamisha el-yurtning dardu tashvishlari bilan yashash, odamlar, elatlar va xalqlar o‘rtasida ahillik va hamjihatlikni qaror toptirish, yuksak fazilatlarini tarannum etish kabi ezgu maqsadlarni hayot mazmuni deb bilganlar.¹³

Navoiy qahramonlari Farxod va Shirin, Layli va Majnun, Iskandar va Mohinbonu, Shopur va Bahrom hamda shu kabilar aynan o‘z xalolligi va insoniyligi va sahovati, kamtarligi va donoligi, samimiy sevgisi va do‘stlikka sadoqati bilan o‘z doirasidagi, o‘z zamonidagi kishilar orasida yaqqol ajralib turadilar; ular aql va adolat tantanasi uchun, o‘z maqsadlariga va yangi baxt-saodatga erishmoq uchun kurashadilar. Navoiy o‘zining ideallashtirilgan qahramonlarining ijobiy obrazini yaratar, ularning ahloqiy jasoratlarining musaffoligini, xalq orzu-umidlariga befarq qaramasligini ko‘rsatib berar ekan, bu bilan o‘zining yaxshilik va baxt-saodatga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi.

Endi Navoiyning yovuzlikning ana shunday salbiy tarzda namoyon bo‘lishi xususidagi fikrni alohida ravishda umumlashtiramiz. Eng avvalo, Navoiyning insoniyat baxtsizligining asosiy aybdori bo‘lmish urush muammosiga munosabatini aniqlab olish, bizningcha maqsadga muvofiqdir. Navoiy shuning uchun ham urushni birinchi galda, xalq uchun behad yovuzlik, inson shaxsi ustidan cheksiz zo‘ravonlik, jamiyat hayotidagi katta ahloqiy nuqson deb hisobladiki, xunrezlik urushlari mamlakatning batamom xonavayron bo‘lishiga, minglab va o‘n minglab begunoh kishilarning halokatga, ochlik va azob-uqubatlarga ajoyib madaniy inshootlarning vayron bo‘lishiga olib keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

¹² Зоҳидов В. Мир идей и образов А.Наваи. С.91

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Amaliy natijadorlik, inson manfaatlarini ta‘minlash – jamiyatni isloh etishning bosh maqsadidir. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2018. B. 334

Shunday qilib, Navoiy behad-behisob yovuzlik va falokat, inson aql-zakovatiga qarshi ijtimoiy hodisa sifatida xunrezlik urushlarini juda qattiq qoralaydi. Qayd etilgan xislatlar O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi Uyg'onish madaniyatining boshqa region, xususan, Yevropadagi Uyg'onish madaniyati mazmuni bilan yaqinligini, o'xshashligini ko'rsatadi.

1. Uyg'onish madaniyati madaniy rivojlanishning yuqori darajaga keskin o'tish jarayonini o'z ichiga oladi.

2. Uyg'onish madaniyatining vujudga kelishi ijtimoiy jihatdan feodal munosabatlari rivoji davriga to'g'ri keladi. Shu davrda Sharqda ishlab chiqarishning yuqori bosqichiga ko'tarilishi bilan bog'langandir. Bu davrda qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, xunarmandchilik, pul munosabatlari avj oladi.

3. Ma'naviy, g'oyaviy jihatdan Sharq Uyg'onish madaniyati, falsafasi, ijtimoiy fikri o'tmish hamda qo'shni o'lkalar, xalqlar madaniyati merosidan keng foydalanish o'zaro madaniy aloqalarning kuchayishi, keng ma'nodagi vorislik, turli madaniy boyliklarning qorishuvi, ko'p madaniy an'analarning tug'ilishi, shakllanishi va rivoji asosida taraqqiy etadi. Xususan, arab, fors, qadimgi yunon, xind, turkiy madaniyati boyliklari yangi davr talabi asosida yangicha madaniy yuksalishni vujudga keltirdi.

4. Uyg'onish madaniyati, jumladan Yaqin Sharq hamda O'rta Osiyo Uyg'onish madaniyatining asosi, uning insonparvarlik xarakteridir: inson, insoniy aql, his-tuyg'u, inson ma'naviy boyligini egallash, uni o'rta asrchilik ma'naviy qutultirish va yanada boyitish, yuksaltirish masalalari Uyg'onish madaniyatining markazida turadi.

5. Xar bir xalq tarixida shunday davrlar bo'ladiki, bu davrlar xalqning iste'dodi, ma'naviy darajasi, aqliy qobiliyatini butun jahon miqyosiga olib chiqadi hamda jahon madaniyati rivojiga ajralmas xissa bo'lib kiradi.

Bunday davrlarning qimmatini nihoyatda muhim tarixiy voqealarning ro'y berishi hamda buyuk arboblarning iste'dod egalari, mutafakkirlarning faoliyati va qoldirgan merosi bilan o'lchanadi.

XULOSA

Sharq Uyg'onish davri o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi muhim omillar va hususiyatlari bilan yaqqol ajralib turganligini ko'rsatib o'tish mumkin: madaniyatda dunyoviy bilimlar, aqidalarning rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuqtai nazaridan talqin etilishi; turli davlatlar, xalqlarning madaniy meroslari, qadriyatlar, yutuqlari, ma'naviy boyliklaridan foydalanishi; astronomiya, matematika, minerologiya, jug'rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlarning rivojlanganligi; insoniy do'stlik, yuksak axloqiylik g'oyalarining targ'ib etilishi,

komil inson shaxsini shakllantirib voyaga yetkazishi; falsafa va tarix fanlarining o‘shishi; adabiyot, musiqa, badiiy madaniyat, notiqlikning keng rivoj topishi; bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e’tirof topishidir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yurtimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o‘z zamonasidan o‘zib ketgan daholar yurti bo‘lib kelgan. Ma’lumki, bugun yurtimizda madaniy-ma’rifiy sohaga katta e’tibor berilmoqda, yoshlarni ajdodlarimizga munosib avlod etib tarbiyalash maqsadida ulkan ishlar qilinmoqda. Buyuk allomalarimizning bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug‘ allomalar, mutafakkirlar vatani bo‘lib kelganini keng targ‘ib qilish, milliy-madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat, buyuk zamin farzandlari ekanligi hissini va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. 2-nashr. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Адам Мец, Мусульманский Ренессанс. Москва, Издательство “Наука”, 1966.
3. Abu Rayhon Beruni, Minerologiya. T.2 Toshkent, 1966 y.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы, Москва, 1960.
5. Зохидов В. Мир идей и образов А.Наваи.
6. Из философского наследия народов Востока. Ташкент, издательство «Фан», 1972.
7. Исломова Л.А. Ўзбекистон халқларининг эстетик мероси ҳақида. Т.: 1969.
8. Krachkovskiy I.Yu. Арабская географическая литература. Л. Издательство АН СССР соч.т. VI 1947г.
9. Urolov A., Xojixonov M. “Ulug‘bek yaratgan ma’naviyat” Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994 y.
10. Г.Т.Махмудова. Маънавият ва маданиятшунослик фанларидан маъруза матнлари. Т.: ЖИДУ, 2000.
11. Маънавият юлдузлари. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999 й.
12. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2018.
13. Mirziyoyev Sh.M. Amaliy natijadorlik, inson manfaatlarini ta’minlash – jamiyatni isloh etishning bosh maqsadidir. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2018.
14. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. I жилд. Т.: “NOSHIR”, 2013.
15. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. II том. Т.: «MUMTOZ SO‘Z», 2017.